



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 27 - iyun

VI-62-113-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### **O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining tumandagi ijrosi bo'yicha tuman hokimining o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'ining axboroti haqida**

O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining tumandagi ijrosi yuzasidan tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Sh.Rajabovaning axboroti xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining tumandagi ijrosi haqida tuman hokimining o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Sh.Rajabovaning axboroti xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

### **2. Tuman hokimining o'rinbosari – Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i (Sh.Rajabova) mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:**

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha fuqarolarning madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish hamda bunga ko'maklashish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularni tiklash bo'yicha choralar ko'rish;

- mehnat bozorida xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ilgari surish, ishga joylashtirish uchun o'qitish hamda sharoitlar yaratish yuzasidan xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish vazifalari yuklatilsin.

**3. Tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi (Sh.Rajabova), tuman Prokuraturasi (S.Ramazonov), tuman Ichki ishlar bo'limi (S.Choriyev), tuman Adliya bo'limi (G'.Tilovqobilov), tumandagi korxonalar va muassasalar va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga:**

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

- jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar va axborotni muntazam ravishda yig'ilishlarda tahlil qilib borish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularni tiklash bo'yicha choralar ko'rish;

- xotin-qizlar va erkaklarning tengligini ta'minlash masalalari yuzasidan kadrlarning kasbiy tayyorgarligi tizimini takomillashtirish bo'yicha tegishli choralar ko'rish va bunga ko'maklashish;

- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirish vazifalari yuklansin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida har chorak yakuni bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (Sh.Qo'ziyeva) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**